

Jismoniy madaniyat

5112000 - Jismoniy madaniyat - umumiy oʻrta taʼlim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun jismoniy madaniyat boʻyicha oʻqituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yigʻindisidan iborat boʻlgan taʼlim yoʻnalishidir.

5112000 – Jismoniy madaniyattaʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi

5112000 – Jismoniy madaniyat – umumiy oʻrta taʼlim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun jismoniy madaniyat boʻyicha oʻqituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yigʻindisidan iborat boʻlgan taʼlim yoʻnalishidir.

4.2 Bakalavrlarning kasbiyfaoliyati obyektlari

5112000 – Jismoniy madaniyat taʼlim yoʻnalishibakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumtaʼlim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari taʼlim muassasalari, oʻquvchilar, oʻquv-tarbiya jarayoni, oʻqitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, matematik usullar.

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

5112000 – Jismoniy madaniyattaʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavr oʻz psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- oʻqituvchilik;
- tarbiyachilik;
- oʻquv-metodik;
- ilmiy-tadqiqot.

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari taʼlim jarayonining manfaaddor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy taʼlim tizimi tomonidan aniqlanadi.

4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5112000 – Jismoniy madaniyat taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavr taʼlim dasturini oʻzlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- **o'qituvchilik:** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari jismoniy madaniyat o'qituvchisi bo'lib ishlash;
 - **tarbiyachilik:** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;
 - **o'quv-metodik:** mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;
- ilmiy-tadqiqot** muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.